e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/rmdyqf67

ZAMONAVIY O‘ZBEK OILASIDA QADRIYATLAR VA GENDER MUNOSABATLARI

Urazaliyeva Gulshada Bekpulatovna
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, dotsent, (DSc).
e-mail: g.urozaliyeva@yandex.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-9027-7553

Annotatsiya.
Maqolada zamonaviy o‘zbek oilasida etnomadaniy qadriyatlarning saqlanishi, avlodlararo vorisiylik va gender munosabatlarining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Oilaviy muloqot, ta’lim, migratsiya, urbanizatsiya va raqamli muhitning qadriyatlarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Bugungi oila institutida yuz berayotgan ayrim o‘zgarishlar mavjud rasmiy demografik ma’lumotlar va xalqaro gender ko‘rsatkichlari asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: oila, etnomadaniyat, gender, qadriyatlar, avlodlar vorisiyligi, milliy o‘zlik, ijtimoiy transformatsiya.

ЦЕННОСТИ И ГЕНДЕРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ

Уразалиева Гулшада Бекпулатовна
Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства», доцент, (DSc).

Аннотация.
В статье с социально-философской точки зрения анализируются сохранение этнокультурных ценностей, межпоколенческая преемственность и трансформация гендерных отношений в современной узбекской семье. Рассматривается влияние семейного общения, образования, миграции, урбанизации и цифровой среды на систему ценностей. Отдельные изменения, происходящие в современном институте семьи, анализируются на основе имеющихся официальных демографических данных и международных гендерных показателей.

Ключевые слова: семья, этнокультура, гендер, ценности, преемственность поколений, национальная идентичность, социальная трансформация.

VALUES AND GENDER RELATIONS IN THE MODERN UZBEK FAMILY

Urazaliyeva Gulshada Bekpulatovna
Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Associate Professor, (DSc).

Abstract.
This article examines the preservation of ethnocultural values, intergenerational continuity, and the transformation of gender relations in the modern Uzbek family from a socio-philosophical perspective. It explores the influence of family communication, education, migration, urbanization, and the digital environment on values. Particular changes occurring within the contemporary institution of the family are analyzed based on available official demographic data and international gender indicators.

Keywords: family, ethnoculture, gender, values, intergenerational continuity, national identity, social transformation.

Kirish. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi, axloqiy qarashlari, til va madaniy tajribasi shakllanadigan muhim maskandir. Oilada milliy xotira, urf-odat, mehr-oqibat, o‘zaro mas’uliyat va ijtimoiy hamkorlik kabi qadriyatlar avloddan avlodga uzatiladi. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi iqtisodiy, huquqiy va madaniy o‘zgarishlar ta’sirida doimiy ravishda qayta shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan nutqida ayollarning mehr-oqibat, olijanoblik, muhabbat va sadoqat kabi qadriyatlarni kamol toptirish hamda oila qo‘rg‘onini mustahkamlashdagi xizmatlarini alohida ta’kidladilar [1]. Prezidentimizning ushbu fikrlari ham bugungi zamonaviy davrda oila va ayollar masalasining ma’naviy-axloqiy ahamiyati dolzarbligini ko‘rsatadi.

Bugungi axborotlashgan davr, globallashuv jarayonlari, urbanizatsiya, ta’limning kengayishi, mehnat migratsiyasi va raqamli kommunikatsiyalar oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Albatta, ushbu o‘zgarishlarning oilaviy an’analar va urf-odatlarimizga ta’siri oila o‘zgarishsiz tuzilma sifatida qolishi kerak, degan fikrni asoslamaydi. Balki qadriyatlar saqlanishi bilan birga, ularning mazmuni yangi hayotiy sharoitlarda qayta talqin qilinishi jarayonlari ham jamiyat barqarorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi ham aynan oilada qadriyatlar vorisiyligi va gender munosabatlarining o‘zgarish mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, ularni ilmiy adabiyotlar, huquqiy asoslar va rasmiy demografik ma’lumotlar bilan qiyosiy kontekstda yoritishdir.

ISSN 3060-5059 (Online)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oila institutini nazariy jihatdan tahlil qilishda uning jamiyatdagi funksiyalari, shaxsiy munosabatlar va madaniy vorisiylik mexanizmlarini yaxlit ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Ingliz sotsiologi Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda yaqin munosabatlar o‘zgarishini tahlil qilib, shaxsiy hayotdagi munosabatlar demokratizatsiyasi imkoniyatlarini muhokama qiladi [2]. Uning yondashuvi oilaviy munosabatlarni o‘zgarmas me’yorlar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq jarayon sifatida o‘rganishga nazariy asos bo‘ladi. E. I. Akramova esa oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi va avlodlararo munosabatlarda urf-odatlarni saqlash masalasini tahlil qiladi [3]. Olima S. Inoyatova oilaviy munosabatlarning yangilangan jamiyatdagi transformatsiyasini ijtimoiy-huquqiy va qadriyatlar nuqtayi nazaridan yoritadi [4]. N. Ruzimova oilaviy qadriyatlarning nazariy asoslari, ularning ijtimoiy hayotdagi roli va avlodlar orasidagi o‘zgarishlarni tadqiq qiladi [5]. Urazaliyeva G. B. ham oila institutini mustahkamlashda gender tenglikning etnofunksional jihatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etib, oila, gender munosabatlari va etnomadaniy omillar o‘rtasidagi aloqalarni dissertatsiyasida tahlil qilgan [8].

Gender tadqiqotlarida jins va gender tushunchalarini farqlash muhim metodologik asos hisoblanadi. Gender ijtimoiy munosabatlar, rollar va kutilmalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar vazifalar taqsimoti, farzandlar tarbiyasi, ta’lim va kasbiy tanlovga munosabat orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbekistondagi oilaviy gender munosabatlarining ayrim jihatlarini tadqiq qilgan olimalar U. Sabirova va D. Erbayeva mehnat bozoridagi gender segregatsiyasi, haq to‘lanmaydigan uy mehnati va ijtimoiy-madaniy stereotiplarni mehnat va oila rollarini uyg‘unlashtirishga ta’sir qiluvchi omillar sifatida tahlil qiladi [6]. M. Abdusalomova esa oilada gender rollarining o‘zgarishini ijtimoiy-madaniy va huquqiy kontekstda ko‘rib chiqadi [7]. Bu tadqiqotlar oilaviy qadriyatlar va gender tenglikni bir-biriga zid hodisalar sifatida emas, balki oiladagi munosabatlar, institutlar va ijtimoiy sharoitlar orqali o‘zaro ta’sir qiluvchi jarayonlar sifatida tahlil qilishga asos bo‘la oladi.

Prezident nutqlari mazkur muammoning davlat siyosatidagi ahamiyatini ko‘rsatuvchi rasmiy manba sifatida qaraladi. Prezident Sh. Mirziyoyev o‘z nutqlarida ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish hamda gender tenglikni qaror toptirish vazifalarini ta’kidlaydi. Shuningdek, oila qo‘rg‘onini mustahkamlash va ayollarning oila hamda jamiyat taraqqiyotidagi hissasiga e’tibor qaratish zarurligini qayd etadi [1]. Ushbu nutqlar maqolada normativ-siyosiy kontekst sifatida talqin qilinadi.

Konstitutsiya oilani jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va davlat hamda jamiyat muhofazasidagi institut sifatida belgilaydi [9]. «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda gender xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy jihati sifatida ta’riflanib, teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilganligi belgilangan [10]. Ushbu huquqiy me’yorlar maqolada oilaviy munosabatlarni baholashning normativ asosi sifatida qo‘llaniladi.

Maqolada konseptual tahlil, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va rasmiy statistik ma’lumotlarni tavsifiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tahlilning uch yo‘nalishi ajratildi: oilaning etnomadaniy funksiyasi va avlodlararo vorisiylik; gender sotsializatsiyasi va oilaviy mehnat taqsimoti; demografik o‘zgarishlar hamda huquqiy-ijtimoiy imkoniyatlarning oilaviy munosabatlarga ta’siri.

Darhaqiqat, oila etnomadaniy qadriyatlarni saqlash va qayta anglash jarayonlarida beqiyos ahamiyatga egadir. Oilada etnomadaniy qadriyatlar kundalik hayot orqali namoyon bo‘ladi. Milliy tilda muloqot, oilaviy hikoyalar, marosimlar, qarindoshlik munosabatlari va katta avlodning shaxsiy namunasi madaniy xotirani saqlashga xizmat qiladi. Biroq qadriyatlar faqat tashqi shaklda takrorlanganda, ularning mazmunini anglash susayishi mumkin. Shu bois an’ananing tarixiy va axloqiy asoslarini tushuntirish, uning inson qadri, o‘zaro hurmat va mas’uliyat bilan bog‘liq jihatlarini ochish muhim.

Infratuzilmasining mavjudligi kabi omillar bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil etishni talab etadi. Vorisiylikni «saqlash — uzatish — qayta anglash — moslashtirish — davom ettirish» zanjiri sifatida tushunish oilaviy madaniyatning dinamik xususiyatini ko‘rsatadi. Katta avlod tarixiy xotira va hayotiy tajribani uzatadi; yosh avlod esa ta’lim, kasbiy faoliyat va raqamli kommunikatsiyalar orqali yangi tajribani oila muhitiga olib kiradi. Bu jarayon an’anani yo‘qotish yoki o‘zgarishsiz saqlash o‘rtasidagi binar qarama-qarshilik bilan cheklanmaydi, balki qadriyatlarning mazmunini zamonaviy sharoitlarda qayta ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Etnomadaniy vorisiylikning shakli oilaning ijtimoiy sharoitiga ham bog‘liqdir. Ta’lim darajasi, shahar yoki qishloq muhiti, mehnat migratsiyasi, oila a’zolarining turli hududlarda yashashi va raqamli texnologiyalardan foydalanishi madaniy tajribaning uzatilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masofada yashovchi qarindoshlar bilan videoaloqa, raqamli fotoarxivlar va elektron yozishmalar oilaviy xotira saqlanishining yangi imkoniyatlarini yaratadi. Demak, raqamli muhitni faqat an’anaga tahdid sifatida emas, balki uning yangi shakllarda davom etishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida ham tadqiq etish o‘rinlidir.

Oila gender me’yorlarini shakllantiradigan dastlabki muhitdir. Qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi, ularning uy ishlaridagi ishtiroki, ta’lim va kasb tanlashga bo‘lgan munosabat, oilaviy qarorlardagi ovozi, mas’uliyat va imkoniyatlari gender sotsializatsiyasining mohiyatini belgilaydi. Agar uy-ro‘zg‘or mehnati va farzandlar hamda keksalarni parvarishlash vazifalari faqat bitta oila a’zosining majburiyati sifatida qaralsa, bu uning ta’lim, ish va dam olish imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Shu sababli oilaviy hamkorlik va vazifalarni kelishuv asosida adolatli taqsimlash gender tengligi bilan bog‘liq amaliy masaladir.

Gender tenglik oilada rollarni bir xillashtirishni emas, balki huquq, imkoniyat va mas’uliyatlarni adolatli taqsimlashni anglatadi. Oilaviy qarorlar qabul qilishda har ikki juftning fikrini eshitish, farzandlar tarbiyasida o‘zaro ishtirok etish va kasbiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash teng munosabatlarning muhim ko‘rsatkichlaridir. Barqarorlik o‘zaro hurmat, ishonch, zo‘ravonlikdan xoli muhit va mas’uliyatni bo‘lishish bilan ham belgilanadi.

Bir guruh olimlar, ya'ni U. Sabirova va D. Erbayeva tomonidan qayd etilgan mehnat bozoridagi gender segregatsiyasi, haq to'lanmaydigan uy mehnati va ijtimoiy-madaniy stereotiplar oilaviy va kasbiy rollarni uyg'unlashtirishdagi tizimli to'siqlar sifatida qaralishi mumkin [11]. Bu holat oilaviy munosabatlarni faqat individual tanlovga bog'liq deb qaramasdan, ijtimoiy siyosat, mehnat sharoitlari va parvarish qilish

Jahon bankining Women, Business and the Law 2026 ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston uchun huquqiy asoslar indeksi 82,1, huquqlarni amalga oshirishni baholash indeksi 57,2 deb ko'rsatilgan [12]. Indekslar orasidagi farq qonunchilik va amaliyotni alohida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi; ular oiladagi gender munosabatlarining barcha jihatlarini to'liq ifodalamasligi ham qayd etilgan.

O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda 879 599 ta tirik tug'ilish qayd etilgan. Shu yilda 267,1 ming nikoh va 46,9 ming ajrim ro'yxatga olingan. Bu raqamlar oila va nikoh munosabatlarining mamlakat demografik hayotida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Nikohlar soni 2021-yilda 305,2 ming, 2022-yilda 296,7 ming, 2023-yilda 283,8 ming, 2024-yilda 271,8 ming va 2025-yilda 267,1 mingni tashkil etgan. Ajrimlar soni esa 2021-yilda 39,3 ming, 2022-yilda 48,7 ming, 2023-yilda 49,2 ming, 2024-yilda 45,1 ming va 2025-yilda 46,9 mingta bo'lgan [13].

Yil	Nikohlar, ming	Ajrimlar, ming
2021	305,2	39,3
2022	296,7	48,7
2023	283,8	49,2
2024	271,8	45,1
2025	267,1	46,9

Jadval 1. O'zbekistonda 2021–2025-yillarda qayd etilgan nikoh va ajrimlar. Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ko'rsatkichlar nikohlar sonining yilma-yil kamayishini, ajrimlar soni esa bir xil yo'nalishda barqaror kamaymaganini ko'rsatmoqda. Biroq statistika oilaning ma'naviy mustahkamligi yoki sababiy omillarini to'g'ridan-to'g'ri bildirmaydi. Nikoh va ajrimlarni demografik, iqtisodiy, huquqiy va madaniy omillar bilan birgalikda talqin qilish maqsadga muvofiq.

2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 38 069,1 ming kishini tashkil etgan, shundan 18 896,6 ming nafari ayollar, ya'ni 49,6 foiz, 19 172,5 ming nafari erkaklar, ya'ni 50,4 foiz bo'lgan [14]. Aholining gender tarkibi oilaviy munosabatlar va ijtimoiy siyosatni o'rganishda muhim demografik kontekstni ko'rsatadi. Biroq aholi tarkibidagi ulushlar oiladagi mehnat taqsimoti, qaror qabul qilish yoki huquqlardan foydalanish darajasini mustaqil ravishda belgilamaydi.

Demografik o'zgarishlar oilaviy hayot shakllariga ta'sir qiluvchi omillar bilan birga kechadi. Urbanizatsiya, migratsiya, ta'lim va kasbiy faoliyatning kengayishi oila a'zolarining bir hududda yashashi yoki kundalik muloqot tartibini o'zgartirishi mumkin. Bu o'zgarishlar qon-qarindoshlik aloqalarining zaiflashishini anglatmaydi, balki aloqalarning yangi tashkiliy va kommunikatsion shakllarini yuzaga keltirishi ham mumkin.

NATIJALAR

Tahlillar natijasida oilaviy qadriyatlar vorisiyligi bir nechta o'zaro bog'liq mexanizmlar orqali amalga oshishi aniqlandi. Birinchisi — oilaviy muloqot va shaxsiy namuna bo'lsa, ikkinchisi — marosimlar, til va oilaviy xotira, uchinchisi esa ta'lim va avlodlararo tajriba almashinuvi, to'rtinchisi — raqamli kommunikatsiya va oilaviy arxivlardir. Ushbu mexanizmlar qadriyatlarning saqlanishi bilan birga, ularni yangi sharoit va imkoniyatlarda qayta anglashga ham xizmat qiladi.

Gender munosabatlari oilaviy qadriyatlarni uzatish jarayonining ajralmas qismi ekanini alohida ta'kidlash lozim. Qizlar va o'g'il bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni, uy mehnatining o'zaro taqsimlanishi, ta'lim va kasbiy tanlovga munosabatning shakllanishi, oilaviy qarorlarda ishtirok etish me'yorlari gender rollarining shakllanishiga ta'sir qiladi. Ushbu rollar faqat oila ichki munosabatlari bilangina belgilanmay, balki mehnat bozori, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy mexanizmlar bilan ham bog'liqdir.

Rasmiy demografik ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2025-yillarda nikohlar sonining kamaygani va ajrimlar ko'rsatkichining o'zgaruvchanligi aniqlangan. Jahon bankining 2026-yilgi indikatorlari O'zbekistonda huquqiy kafolatlar va ularning amalga oshishiga oid baholar orasida farq borligini qayd etadi. Bu natijalar oila institutini madaniy vorisiylik, gender adolat va ijtimoiy sharoitlarni yaxlitlikda o'rganish zarurligini asoslaydi.

Maqolaning ilmiy natijasi esa oiladagi etnomadaniy vorisiylik va gender munosabatlarini dinamik, o'zaro ta'sirli jarayon sifatida konseptuallashtirishdir. Bu yondashuv qadriyatlarning mazmunan davom etishi, oila a'zolarining teng qadr-qimmati va mavjud zamonaviy sharoitlarga moslashuvini yaxlit tahlil doirasida ko'rib chiqish imkonini beradi.

XULOSA

Zamonaviy o'zbek oilasi etnomadaniy qadriyatlarni saqlash, uzatish va qayta anglashda muhim ijtimoiy institut bo'lib qolmoqda. Vorisiylikni an'analarni o'zgarishsiz takrorlash bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Oilaviy qadriyatlar avlodlararo muloqot, shaxsiy namuna, marosimlar, til, ta'lim va raqamli muhit orqali saqlanib, yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta talqin etiladi.

Gender munosabatlari ham ushbu jarayonning markaziy qismi hisoblanib, oilaviy munosabatlar, ya'ni mehnat taqsimoti, farzandlar tarbiyasi, ta'lim va kasbiy imkoniyatlar, qaror qabul qilishda ishtirok etish kabi jarayonlar gender sotsializatsiyasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Gender tengligini ta'minlash uchun huquqiy kafolatlar bilan birga, ularning amalda ishlashiga yordam beruvchi institutlar, ijtimoiy xizmatlar va oilaviy hamkorlik zarurdir.

Demografik statistika oila institutining hajmi va o‘zgarish tendensiyalarini ko‘rsatadi, ammo bu raqamlarni oilaviy barqarorlikning yagona mezoni sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Shu sababli yangi tadqiqotlarda oilaviy muloqot, uy mehnati taqsimoti, migratsiya va raqamli aloqalar bo‘yicha empirik ma’lumotlarni yig‘ish ilmiy takliflarni yanada mustahkamlaydi. Shu asosda oila, qadriyatlar va gender munosabatlarini milliy madaniy kontekstda, inson huquqlari va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida kompleks o‘rganishning ahamiyati yanada oshmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – 07.03.2025. – URL: https://www.president.uz/uz/lists/view/7928.

2. Giddens A. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. – Cambridge: Polity Press, 1992. – URL: https://www.wiley-vch.de/en/areas-interest/humanities-social-sciences/sociology-12so/social-theory-12so1/the-transformation-of-intimacy-978-0-7456-1239-3.

3. Akramova E. I. Transformation of Family Values into New and Traditional Conditions in the Republic of Uzbekistan // Philosophy and Life International Journal. – 2023. – № SI-2 (2022). – URL: https://tadqiqot.uz/index.php/philosophy/article/view/6811.

4. Inoyatova S. Transformation of Family Relations in Renewed Uzbekistan // Open Journal of Social Sciences. – 2025. – P. 195–201. – DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-04-23.

5. Ruzimova N. M. The Concept of Family Values: Theoretical Foundations and Their Role in Social Life // Open Journal of Humanities and Social Sciences. – 2025. – P. 166–177. – DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-05-08-30.

6. Sabirova U., Erbayeva D. Gender Equality in Family Relations and Harmonization of Labor and Family Roles in Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: https://tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/14460.

7. Abdusalomova M. How Should Gender Really Be in the Family? // Open Journal of Humanities and Social Sciences. – 2025. – P. 104–111. – DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-05-01-13.

8. Urazaliyeva G. B. Oila institutini mustahkamlashda gender tenglikning etnofunksional jihatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023-yil 30-aprel. – 76-modda. – URL: https://lex.uz/docs/6451070.

10. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-4494849.

11. Sabirova U., Erbayeva D. Gender Equality in Family Relations and Harmonization of Labor and Family Roles in Uzbekistan // Journal of Social Studies. – 2026. – Vol. 9, № 2. – URL: https://www.sindex.uz/ru/article/99253.

12. World Bank. Uzbekistan: Women, Business and the Law 2026. – Washington, DC: World Bank, 2026. – URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099030007042219372/pdf/IDU02ae8059a06921042ca096ab0da0d918b2185.pdf.

13. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64698.

14. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Demographic Situation in the Republic of Uzbekistan: January–December 2025 [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/img/news/demografiya-press-reliz-en_p24116.pdf.